

YIRIK SAVDO MAJMUALARI HUDUDIDA AVTOMOBILLARNI SAQLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY

Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich

Jizzax politexnika instituti assistant

Nishonov Sherzod Sunnatovich

Sharof Rashidov tumani 1- son kasb hunar maktabi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola yirik savdo majmualari hududida avtomobillar saqlashni qay darajada tashkil etilganligi, avtomobillarnisaqlashga bo'lgan real talabni aniqlash ,avtomobillarni saqlashdagi muammolarni o'rganish, ularga yechim topish hamda ushbu jarayonlarni tashkil etishning zamonaviy takomillashtirish usullarini ishlab chiqish masalalari ko'rilgan.

Kalit so'zlar: Harakat, yo'l-transport hodisi, joy, ko'cha, shahar, savdo markazi, bozor.

Harakat miqdori va tarkibining o'zgarishi harakat tezligi va yo'l-transport hodisalarining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Shahar ko'chalarining tasmalarida harakat miqdori va uning tarkibining tez-tez o'zgaruvchanligi kuzatiladi. Hozirgi vaqtda butun dunyoda avtomobillashtirish darajasining ortib borayotganligini kuzatish mumkin. Hozirgi kunda bu anchagina katta muammoga aylangan. Buning oqibatida transport vositalarining to'xtash joylari yo'lning qatnov qismida vujudga kelayotganligi kuzatilmoqda.

Bu holat transport vositalarining harakatlanishiga salbiy ta'sir qilayotganligi ma'lum, ayniqsa, jamoat transportlarining harakatlanishini qiyinlashtirib, yo'lning o'tkazish qobiliyatini pasayishiga, tirbandlikning vujudga kelishiga, transport vositalarining tezligini pasayishiga olib kelmoqda.

Shahar sharoitida avtomobillarni saqlashning harakat miqdori va tarkibiga ta'sirini o'rganish maqsadida Jizzax shahridagi Temiryo'lchilar ko'chasi oldidagi Markaziy Dehqon bozori parkovka hududi tanlab olindi.

Ko'chalardagi yo'lning holati, harakat jadalligi bilan bir qatorda yo'l bo'laklari bo'yicha har xil transport vositalarining tezligini alohida va umuman o'zgarishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich, ya'ni transport oqimining tezligini ham alohida o'rganish mumkin. Tezlik haqida ma'lumot to'plashni oniy tezlikni aniqlashdan boshlanadi. Harakat tezligi haqida olingan boshlang'ich ma'lumotlarni matematik statistika usuli


bilan tahlil qilib, taqsimot egriligi, jamlangan egrilik grafiklari tuziladi. Taqsimot egriligidan modal tezlik, jamlangan egrilikdan 15, 50, 85, 95% taminlanganlik tezliklari aniqlanadi.

Jizzax shahri Temiryo'Ichilar ko'chasi Markaziy Dehqon bozori oldidagi parkovka hududiga kirish va chiqish joyidan 50 va 100 metr masofalarda tadqiqot ishlari olib borildi.

Shahar sharoitida avtomobillarni parkovkalashning sig'imlilik darajasini tadqiq qilish uchun Jizzax shahridagi "Temiryo'Ichilar" ko'chasida tadqiqot ishlari olib borildi. Ushbu ko'chada joylashgan "Markaziy dehqon bozori" da joylashgan parkovka hududi o'rganildi.

Temiryo'Ichilar ko'chasidagi savdo do'konlari oldida joylashgan parkovka hududining sig'imlilik darajasi 58 avtomobilni tashkil qiladi. Bu parkovka hududi yengil avtomobillar va mikroavtobuslar uchun mo'ljallangan. Kuzatuv usulida olib borilgan tadqiqoqlarga ko'ra ushbu parkovka hududi ham kunning hamma vaqtida to'liq bo'ladi. Ushbu parkovka hududi ham sig'imlilik darajasining yetarli emasligi sababli qolgan avtotransport vositalari yo'lning qatnov qismi chetiga to'xtashga majbur bo'lmoqda. Buning natijasida ushbu ko'chada qatnov qismi cheti bo'ylab transport vositalarining to'xtab turishi 50 metrgacha tashkil qilmoqda. Bu bir qancha salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Sh.Rashidov ko'chasidagi "Media Park" binosi yonida joylashgan avtoturargoh sig'imlilik darajasi bo'yicha 52 avtomobilni o'z ichiga qamrab oladi. Bu avtoturargoh faqat yengil avtomobillar uchun mo'ljallangan. Kun davomida kuzatishlarga ko'ra, ushbu hududning sig'imlilik darjasi yetarli bo'lganligi sababli hech qanday salbiy xolatlar kuzatilmadi.



2.10-rasm. Jizzax shahrining asosiy ko'chalaridagi parkovka hududlarining soni bo'yicha taqsimlanish siklogrammasi.

Olib borilgan tadqiqot ishlari Jizzax shahrining ko'proq asosiy ko'chalarida amalga oshirildi. Jizzax shahridagi "Islom Karimov, Sharof Rashidov, Alisher Navoiy, Temiryo'Ichilar va Shifokorlar" ko'chalaridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, savdo majmualari oldidagi parkovka hududlarining soni bo'yicha Sh.Rashidov

ko'chasida 54 % tashkil etmoqda, I.Karimov ko'chasida esa 30% tashkil etmoqda va A.Navoiy va Shifokorlar ko'chalarida 3% dan tashkil qilmoqda. Yana shuni aytib o'tishimiz kerakki, yuqorida ko'rib turganimizdek odamlar eng ko'p to'planadigan savdo majmualarini deyarli barchasida avtourargohlar to'g'ri tashkil etilgan, lekin bozor hududida joylashgan turargoh esa sig'imlilik darajasi yetarli emas va statistik tahlil natijalariga ko'ra bozor hududiga kirib kelib to'xtab turgan avtomobillar soni turargoh sig'imidann bir necha barobar ko'pligi aniqlandi.

Jizzax shahridagi "Islom Karimov, Sharof Rashidov, Alisher Navoiy, Temiryo'lchilar va Shifokorlar" ko'chalarida olib borilgan tadqiqotlari natijasida sig'imlilik darajasi bo'yicha eng katta parkovka hududi Jizzax shahrining "Markaziy dehqon bozori" oldida joylashgan. Bu parkovka maydoni tadqiqot olib borilgan barcha avtoturargah jami ulushining 38 % tashkil qilmoqdi. Biroq bu parkovka hududining sig'imlilik darajasi yetarli bo'lmaganligi sababli transport vositalari qatnov qismining chetiga to'xtashga majbur bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abdunazarov J.N., Abdurahmonov Z.B. "Shahar sharoitida avtomobillarni parkovkalashda innovatsion loyihalash tizimi", "Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning innovatsion rivojlantirishdagi zamonaviy muammolar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. AndijonMI 2020 yil.
2. Abdunazarov J.N., Abdurahmonov Z.B. "Shahar sharoitida avtomobillarni parkovkalashda innovatsion loyihalash tizimi", "Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning innovatsion rivojlantirishdagi zamonaviy muammolar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. AndijonMI 2020 yil.
3. Бакаева Ф., Муратова Д. Общество инвалидов Узбекистана "Аналитический доклад по итогам мониторинга прав инвалидов на доступ к транспортным услугам" 2015 год.
4. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi: № 01/4-01-19-1365, Toshkent 2019 yil 27 dekabr.